O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

OILAVIY TADBIRKORLIK TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 16-martda qabul qilingan

Senat tomonidan 2012-yil 23-martda ma’qullangan

Toshkent sh. 2012-yil 26-aprel, O‘RQ-327-son

7 bob, 35 modda. Matn lotin yozuvida, keyingi o‘zgartirishlar haqidagi izohlar bilan.
Hisobchi — ma’lumot uchun; rasmiy matn lex.uz da. Amaldagi tahririni o‘sha yerda tekshiring.

Mundarija

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi
2-modda. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
3-modda. Oilaviy tadbirkorlik
4-modda. Oilaviy korxona
5-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilari
6-modda. Oilaviy korxona boshlig‘i

2-bob. Oilaviy korxonani tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

7-modda. Oilaviy korxonani tashkil etish tartibi
8-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi
9-modda. Oilaviy korxonaning ta’sis shartnomasi
10-modda. Oilaviy korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
11-modda. Oilaviy korxonaning ustav fondi

3-bob. Oilaviy korxonaning hamda uning ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari

12-modda. Oilaviy korxonaning huquq va majburiyatlari
13-modda. Oilaviy korxona boshlig‘ining huquq va majburiyatlari
14-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari

4-bob. Oilaviy korxonaning faoliyati

15-modda. Oilaviy korxonaning mol-mulki
16-modda. Oilaviy korxonaning faoliyati amalga oshiriladigan joy
17-modda. Oilaviy korxona faoliyatini amalga oshirish shartlari
18-modda. Oilaviy korxona mahsulotini realizatsiya qilish
19-modda. Oilaviy korxonada hisob va hisobot

5-bob. Oilaviy korxonada mehnat. Oilaviy korxona ishtirokchilari va yollanma xodimlarining ijtimoiy muhofazasi

20-modda. Oilaviy korxonada mehnatga oid munosabatlar
21-modda. Oilaviy korxonada mehnatga haq to‘lash
22-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va yollanma xodimlarining ijtimoiy muhofazasi

6-bob. Oilaviy korxona faoliyati erkinligining kafolatlari

23-modda. Oilaviy korxonani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
24-modda. Oilaviy korxona mol-mulkining natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligi
25-modda. Oilaviy korxona faoliyatining erkinligi
26-modda. Oilaviy korxonaga soliq solish xususiyatlari
27-modda. Oilaviy korxona faoliyatini tekshirishlarning cheklanishi
28-modda. Oilaviy korxonaning kommunal infratuzilma obyektlaridan foydalanishini ta’minlash
29-modda. Oilaviy korxonaga bank xizmati ko‘rsatish va uni kreditlash

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Oilaviy korxonani qayta tashkil etish va tugatish
31-modda. Oilaviy korxonalarning birlashmalari
32-modda. Nizolarni hal etish
33-modda. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik
34-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish
35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Oilaviy tadbirkorlik

Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi.

Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan “Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

4-modda. Oilaviy korxona

Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Oilaviy korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxona ishtirokchilari korxona mol-mulki yetarli bo‘lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni yoki “OK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

5-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilari

Oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlangan boshqa shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin emas.

Bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o‘zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo‘lishi mumkin emas.

6-modda. Oilaviy korxona boshlig‘i

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda oilaviy korxona nomidan uning boshlig‘i ish ko‘radi.

Oilaviy korxona ishtirokchilaridan biri uning boshlig‘i bo‘lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o‘z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi.

Oilaviy korxona boshlig‘i vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotgan yoki uzoq vaqt bo‘lmagan taqdirda, u o‘z vazifasini vaqtincha bajarib turish vakolatini oilaviy korxonaning qolgan ishtirokchilari bilan kelishgan holda ulardan biriga berishga haqli.

2-bob. Oilaviy korxonani tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

7-modda. Oilaviy korxonani tashkil etish tartibi

Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tashkil etiladi.

Oilaviy korxona, agar uning ta’sis shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, nomuayyan muddatga tashkil etiladi.

8-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi

Oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi oilaviy korxonaning yuqori boshqaruv organidir.

Oilaviy korxona ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

oilaviy korxonaning ta’sis shartnomasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

oilaviy korxona boshlig‘ini saylash;

oilaviy korxona faoliyatining turlarini belgilash;

oilaviy korxonaning ustav fondini belgilash va uning miqdoriga o‘zgartishlar kiritish;

oilaviy korxona boshlig‘ining oilaviy korxona moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotini ko‘rib chiqish;

ta’sis shartnomasiga muvofiq oilaviy korxonaning foydasini taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

oilaviy korxonaning mol-mulkiga doir yirik bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Oilaviy korxona ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining vakolatlariga ta’sis shartnomasida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

9-modda. Oilaviy korxonaning ta’sis shartnomasi

Oilaviy korxonaning ta’sis hujjati mazkur korxonaning barcha ishtirokchilari tomonidan tuziladigan ta’sis shartnomasidir.

Oilaviy korxonaning ta’sis shartnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

oilaviy korxona boshlig‘ining va oilaviy korxona boshqa ishtirokchilarining familiyasi, ismi, otasining ismi hamda yashash joyi (manzili);

oilaviy korxona ustav fondining miqdori;

oilaviy korxona ishtirokchilari tomonidan uning ustav fondiga kiritiladigan mol-mulkni belgilash tartibi;

oilaviy korxonaning firma nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

oilaviy korxona ishtirokchilari o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatidan olingan foydani, shuningdek oilaviy korxona tugatilganda mol-mulkni taqsimlash tartibi;

oilaviy korxona ishtirokchilarining oilaviy korxona foydalanishiga berilayotgan mol-mulki ro‘yxati;

oilaviy korxonaning mol-mulkiga doir yirik bitimning miqdori;

oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi;

oilaviy korxona ishtirokchilari muhim deb hisoblaydigan boshqa shartlar.

Ta’sis shartnomasi oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari tomonidan imzolanadi.

> **IZOH**
> Qarang: O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2016-yil 20-dekabrdagi 294-mh-sonli “Tijorat tashkilotlari ta’sis hujjatlarining namunaviy shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2848, 20.12.2016-y.).

Oilaviy korxona boshlig‘i o‘zgargan, ishtirokchi oilaviy korxona tarkibiga ixtiyoriy ravishda kirgan (undan chiqib ketgan), er va xotin o‘rtasidagi nikoh bekor qilingan yoki oilaviy korxona ishtirokchisi vafot etgan va bu hollar oilaviy korxona balansiga berilgan oilaviy korxona ishtirokchilarining mol-mulki ro‘yxatida o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan taqdirda, ta’sis shartnomasiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritiladi. Bunda oilaviy korxonani qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinmaydi.

10-modda. Oilaviy korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

Oilaviy korxona kichik tadbirkorlik subyektlari uchun nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

> **IZOH**
> Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi PQ–2646-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi PQ-357-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchini oilaviy korxona sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablar belgilashga haqli emas.

Ariza beruvchini oilaviy korxona sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga oilaviy korxonani ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etganlik yoki ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzganlik tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplaydi va ma’naviy zarar uchun kompensatsiya to‘laydi.

11-modda. Oilaviy korxonaning ustav fondi

Oilaviy korxonaning ustav fondi pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan pul bilan baholanadigan mulkiy huquqlar yoki o‘zga shaxsga o‘tkaziladigan boshqa huquqlar hisobidan shakllantiriladi. Yagona uy (kvartira) oilaviy korxonaning ustav fondiga kiritilishi mumkin emas.

Oilaviy korxona ishtirokchilari oilaviy korxonaning ustav fondiga korxona ta’sis shartnomasida nazarda tutilgan tartibda o‘zlari kiritadigan mol-mulkni mustaqil ravishda belgilaydi.

Oilaviy korxonaning ustav fondi korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar taqdim etiladigan sanadagi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.

3-bob. Oilaviy korxonaning hamda uning ishtirokchilarining huquq va

majburiyatlari

12-modda. Oilaviy korxonaning huquq va majburiyatlari

Oilaviy korxona quyidagi huquqlarga ega:

mustaqil ravishda tovarlar ishlab chiqarishga (ishlar bajarishga, xizmatlar koʻrsatishga) doir faoliyatni tashkil etish, ishlab chiqarilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tasarruf etish va ularga narx belgilash;

mustaqil ravishda oʻz moliyaviy mablagʻlarini shakllantirish va qarz mablagʻlarini jalb etish, shu jumladan dastlabki (boshlangʻich) kapitalni shakllantirish uchun kreditlar olish;

lizing va sugʻurta xizmatlaridan foydalanish;

shartnomalar tuzish, shu jumladan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish va realizatsiya qilish uchun shartnomalar tuzish;

tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

oʻz firma nomi yozilgan muhrlardan, blankalardan va shtamplardan foydalanish hamda tovar belgisiga (xizmat koʻrsatish belgisiga) ega boʻlish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

Oilaviy korxona:

tuzilgan shartnomalar boʻyicha zimmasiga olgan majburiyatlarni oʻz vaqtida va tegishli tartibda bajarishi;

oilaviy korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari mehnatiga haq toʻlash miqdorini belgilashi, ular bilan oʻz vaqtida hisob-kitob qilishi, shuningdek ish beruvchi sifatida oʻz fuqarolik javobgarligini sugʻurta qilishi;

soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlashi;

mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik texnikasi, ekologiya, sanitariya va gigiyena sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etishi;

realizatsiya qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq sertifikatlarga ega boʻlishi;

> **IZOH**
> Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish toʻgʻrisida”gi Qonunining III bobi (“Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish”) va “Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning alohida turlarini sertifikatlash qoidalari” (roʻyxat raqami 1513, 28.09.2005-y.).

joylashgan yeri (pochta manzili) va boshqa rekvizitlari oʻzgarganligi haqida tegishli davlat organlarini oʻz vaqtida xabardor qilishi shart.

Oilaviy korxona qonunga muvofiq boshqa huquqlarga ega boʻlishi va uning zimmasida oʻzga majburiyatlar boʻlishi mumkin.

13-modda. Oilaviy korxona boshligʻining huquq va majburiyatlari

Oilaviy korxona boshligʻi quyidagi huquqlarga ega:

oilaviy korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko‘rish;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan oilaviy korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan shartnomalar tuzish;

mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzish va shtatlarni tasdiqlash;

ishonchnomalar berish.

Oilaviy korxona boshlig‘i:

oilaviy korxonani shaxsan boshqarishi va uning kundalik faoliyatini tashkil etishi;

oilaviy korxonaning mol-mulki bilan bog‘liq yirik bitimlar tuzishda ishtirokchilarning roziligini olishi;

mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalariga rioya etilishini ta’minlashi;

buxgalteriya hisobi yuritilishini ta’minlashi shart.

Oilaviy korxona boshlig‘i qonunga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va uning zimmasida o‘zga majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

14-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari

Oilaviy korxona ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

oilaviy korxonani boshqarishda, qarorlar qabul qilishda, moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etish;

oilaviy korxona ta’sis shartnomasining shartlariga bog‘liq holda foydadan o‘z ulushini olish;

oilaviy korxona tarkibidan ixtiyoriy ravishda chiqish;

agar oilaviy korxonaning ta’sis shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, oilaviy korxona tarkibidan chiqishda oilaviy korxona mol-mulki qiymatining bir qismi ustav fondiga o‘zi kiritgan mol-mulk miqdoriga mutanosib ravishda qaytarib berilishi yoki shunday qiymatdagi mol-mulk natural holda o‘ziga ajratib berilishi.

Oilaviy korxona ishtirokchilari oilaviy korxonaning faoliyatida shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi shart.

Oilaviy korxona ishtirokchilari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

4-bob. Oilaviy korxonaning faoliyati

15-modda. Oilaviy korxonaning mol-mulki

Oilaviy korxonaning mol-mulki:

oilaviy korxona ishtirokchilari tomonidan uning ustav fondiga kiritiladigan mol-mulkdan;

qarz mablag‘lari va kreditlar hisobiga olingan mol-mulkdan;

tovarlarni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarishdan, xizmatlar ko‘rsatishdan olingan va oilaviy korxonani rivojlantirishga yo‘naltirilgan daromadlardan, shuningdek bu daromadlar hisobiga olingan

mol-mulkdan;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lardan tarkib topadi.

16-modda. Oilaviy korxonaning faoliyati amalga oshiriladigan joy

Oilaviy korxona ishtirokchilariga mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda tegishli bo‘lgan turar joylar va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar, shu jumladan ishlab chiqarish, xo‘jalik binolari va boshqa imoratlar oilaviy korxona faoliyati amalga oshiriladigan joydir.

Oilaviy korxona ishtirokchilariga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan turar joylarni ulardan oilaviy korxona faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarga aylantirish talab qilinmaydi, bundan faoliyatning ayrim turlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

> **IZOH**
> Jumladan, mazkur Qonunning 17-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq oilaviy korxona tomonidan sanoat tusidagi faoliyatni ko‘p kvartirali uyning turar joylarida amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

> **IZOH**
> Shuningdek, qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 15, 16 va 161-moddalari.

17-modda. Oilaviy korxona faoliyatini amalga oshirish shartlari

Oilaviy korxona faoliyatning ayrim turlarini faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo‘lganda amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxona aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar kavlab olishni, shuningdek yuridik shaxslar uchun qat’iy belgilangan soliq yoki yagona yer solig‘i to‘lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishi mumkin emas.

Oilaviy korxona faoliyatida zaharli, radioaktiv moddalar va materiallardan, yuqori bosimli asbob-uskunalardan hamda inson va atrof-muhit uchun katta xavf tug‘diradigan boshqa asbob-uskunalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Oilaviy korxona foydalanishi mumkin bo‘lmagan moddalar, materiallar va asbob-uskunalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oilaviy korxona tomonidan sanoat tusidagi faoliyatni ko‘p kvartirali uyning turar joylarida amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oilaviy korxona faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

18-modda. Oilaviy korxona mahsulotini realizatsiya qilish

Oilaviy korxona o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz hisob-kitob bo‘yicha realizatsiya qilishi mumkin. Oilaviy korxona mahsulotini realizatsiya qilish u ishlab chiqarilgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

19-modda. Oilaviy korxonada hisob va hisobot

Oilaviy korxonada hisob va hisobot, shuningdek uning faoliyati ustidan statistika kuzatuvlari kichik tadbirkorlik subyektlari uchun nazarda tutilgan tartibda yuritiladi.

5-bob. Oilaviy korxonada mehnat. Oilaviy korxona ishtirokchilari va yollanma xodimlarining ijtimoiy muhofazasi

20-modda. Oilaviy korxonada mehnatga oid munosabatlar

Oilaviy korxona ishtirokchilarining shaxsiy mehnatini amalga oshirish shartlari ular o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

Oilaviy korxona (ish beruvchi) va oilaviy korxonaning yollanma xodimi o‘rtasidagi mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakt) bilan tartibga solinadi.

21-modda. Oilaviy korxonada mehnatga haq to‘lash

Oilaviy korxona oilaviy korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari uchun mehnat haqi, mukofotlar hamda kompensatsiyalarning shakllarini, tizimini va miqdorini qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

> **IZOH**
> Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining IX (“Mehnatga haq to‘lash”) va X (“Kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovlari”) boblari.

Oilaviy korxona ishtirokchilari va yollanma xodimlarining mehnat haqi taraflarning kelishuviga ko‘ra, lekin qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

(21-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)

22-modda. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va yollanma xodimlarining ijtimoiy muhofazasi

Oilaviy korxona korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlariga xavfsiz mehnat sharoitlarini, ijtimoiy muhofaza choralarini ta’minlashi shart hamda ularning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Oilaviy korxona korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari uchun qonun hujjatlarida belgilanganiga nisbatan imtiyozliroq mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni mustaqil ravishda belgilashga haqli.

Oilaviy korxonada ishtirokchilar va yollanma xodimlarning ishlagan vaqti davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha badallar to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladigan mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida mehnat stajiga qo‘shiladi.

Oilaviy korxona oilaviy korxonaning ishtirokchilari va yollanma xodimlari hayotiga yoki sog‘lig‘iga mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki ular o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan

bog‘liq holda sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha o‘z fuqarolik javobgarligini ish beruvchi sifatida qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartib asosida sug‘urtalashi shart.

6-bob. Oilaviy korxona faoliyati erkinligining kafolatlari

23-modda. Oilaviy korxonani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Davlat oilaviy korxonaning huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Davlat organlari oilaviy korxonani rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashishi shart.

Davlat organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

foydalanilmayotgan yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar ularda tovarlar ishlab chiqarishni (ishlar bajarishni, xizmatlar ko‘rsatishni) tashkil etish uchun oilaviy korxonaga ijaraga berilishini;

ishlab chiqarish maydonlari qurish uchun oilaviy korxonaga yer ajratilishini;

oilaviy korxona ishlab chiqarish obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini;

oilaviy korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun maxsus joylar berilishini ta’minlaydi.

24-modda. Oilaviy korxona mol-mulkining natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligi

Oilaviy korxonaning mol-mulki natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 202, 203 va 204-moddalariva O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 32-moddasi.

25-modda. Oilaviy korxona faoliyatining erkinligi

Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq har qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin.

Oilaviy korxona bitimlar tuzishda erkindir.

Oilaviy korxona faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan uning tomonidan texnologiyalarni, ishlab chiqariladigan mahsulotning assortimentini tanlashda, mahsulot narxini hamda uni realizatsiya qilish yo‘nalishlarini belgilashda davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

26-modda. Oilaviy korxonaga soliq solish xususiyatlari

Oilaviy korxona qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda yagona soliq to‘lovini to‘lovchidir.

Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o‘tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Oilaviy korxona mehnat haqi fondidan ijtimoiy fondlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to‘lovlar to‘laydi. Oilaviy korxona o‘zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi. Bunday buyumlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Oilaviy korxonaga kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar va kafolatlar tatbiq etiladi.

27-modda. Oilaviy korxona faoliyatini tekshirishlarning cheklanishi

Oilaviy korxonaning faoliyatini rejali tekshirishlar ko‘pi bilan to‘rt yilda bir marta amalga oshiriladi.

(27-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshiruvlardan o‘tkazilmaydi, bundan budjet mablag‘laridan va markazlashtirilgan mablag‘lardan hamda resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq tekshirishlar mustasno.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan oilaviy korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar moliya yili mobaynida muntazam ravishda to‘lanmagan taqdirda, rejali tekshirishlardan o‘tkazilishi mumkin.

(27-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-418-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda)

28-modda. Oilaviy korxonaning kommunal infratuzilma obyektlaridan foydalanishini ta’minlash

Oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o‘zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta’minoti, kanalizatsiya, gaz ta’minoti va issiqlik ta’minoti) haqini to‘lash aholi uchun belgilangan tariflar bo‘yicha va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish, elektr va gaz ta’minoti korxonalari zarur kommunikatsiya tarmoqlarining oilaviy korxona faoliyati amalga oshirilayotgan joygacha yetkazilishini hamda ulanishini aholi uchun belgilangan tariflar bo‘yicha va shartlar asosida ta’minlaydi.

29-modda. Oilaviy korxonaga bank xizmati ko‘rsatish va uni kreditlash

Oilaviy korxonaga bank xizmati ko‘rsatish qonun hujjatlariga muvofiq bank bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Banklar belgilangan tartibda oilaviy korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarini ochadi hamda ularga xizmat ko‘rsatadi.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 43 (“Bank omonati”) va 44 (“Bank hisobvarag‘i”) boblari xamda “O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 1948, 24.04.2001-y.).

Oilaviy korxonani kreditlash bank yoki boshqa kredit tashkiloti bilan tuziladigan kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Oilaviy korxonaga kreditlar berishda banklar, boshqa kredit yoki sug‘urta tashkilotlari kafolat beruvchi bo‘lishi mumkin. To‘lovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kafil bo‘lishi mumkin.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292—298 va 744—748-moddalari.

> **IZOH**
> Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-sentabrdagi 366-sonli “Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklarini mablag‘ bilan ta’minlash, moddiy-texnik ta’minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-maydagi 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xo‘jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasi hisobidan kredit berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom,“Tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg‘armalari kredit liniyalari hisobidan imtiyozli mikrokreditlar berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 2527, 19.11.2013-y.) va “Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 2546, 27.12.2013-y.)

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Oilaviy korxonani qayta tashkil etish va tugatish

Oilaviy korxonani qayta tashkil etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Oilaviy korxonani tugatish uning ishtirokchilarining yoki sudning qaroriga ko‘ra, shuningdek agar unda oilaviy korxonaning yagona ishtirokchisi qolgan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Oilaviy korxona tugatilayotganda bo‘shatilayotgan ishtirokchilar va yollanma xodimlarga qonun hujjatlariga muvofiq ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi kafolatlanadi.

> **IZOH**
> Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining V bobi (“Ishga joylashtirish”) va O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining IV bobi (“Ishdan mahrum bo‘lgan chog‘dagi ijtimoiy kafolatlar”).

Oilaviy korxona uning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilganidan keyin tugatilgan hisoblanadi.

Oilaviy korxonani tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

IZOH
Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49, 53-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 49-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-sonli “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-iyuldagi 327-sonli “Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi 221-sonli “Xo‘jalik sudlari tomonidan moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav fondlarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori.

31-modda. Oilaviy korxonalarning birlashmalari

Oilaviy korxonalar o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq assotsiatsiyalarga (uyushmalarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

IZOH
Qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 77-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

32-modda. Nizolarni hal etish

Oilaviy tadbirkorlik sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

33-modda. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

IZOH
Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 990, 991-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining XVI1 bobi (“Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik, qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik”) va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XIII1 bobi (“Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar”).

34-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

IZOH
Ushbu Qonun “Xalq so‘zi” gazetasining 2012-yil 27-apreldagi 82 (5502)-sonida e’lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.

2012-yil 26-aprel

O‘RQ-327-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 17-son, 188-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 2017-y., 1-son, 1-modda)